

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Gr.09.11 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

JANIZOQOVA GULSHODA MURODOVNA

**MOLGUZAR TOG‘I REKREATSIYA RESURSLARI VA ULARDAN
SAMARALI FOYDALANISH ISTIQBOLLARI**

11.00.01 – Tabiiy geografiya

**GEOGRAFIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2026

**Geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по географическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on geographical sciences**

Janizoqova Gulshoda Murodovna

Molguzar tog‘i rekreatsiya resurslari va ulardan samarali foydalanish istiqbollari.. 3

Жанизокова Гулшода Муродовна

Рекреационные ресурсы Молгузарских гор и перспективы их эффективного использования 21

Janizokova Gulshoda Murodovna

Recreational resources of the Molguzar mountain and prospects for their effective use 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 45

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Gr.09.11 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

JANIZOQOVA GULSHODA MURODOVNA

**MOLGUZAR TOG‘I REKREATSIYA RESURSLARI VA ULARDAN
SAMARALI FOYDALANISH ISTIQBOLLARI**

11.00.01 – Tabiiy geografiya

**GEOGRAFIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2026

Geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiyasi komissiyasida B2025.4.PhD/Gr421 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan. Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb sahifasida (www.samdu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portali (www.ziyonet.uz) manzillarida joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Abbasov Subxon Burxonovich
geografiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar: Boymirzayev Karimjon Mirzaxmedovich
geografiya fanlari doktori, (DSc) professor
Xolmurodov Shakarbek Abdug'aniyevich
geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot: Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Gr.09.11 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 25-aprel soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Bo'stonsaroy ko'chasi, 93-uy. Tel.: (+99899) 776-77-25, faks: (0366) 239-11-40; E-mail: ik-geografiya2019@mail.ru).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin. AT -raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand, Universitet hiyoboni, 15-uy. Tel: (+99866) 233-60-87.

Dissertatsiya aftoreferati 2026-yil 10-aprel kuni tarqatildi.
(2026-yil 31-mart 9-reestr bayonnomasi).



[Signature]
I.R. Turdimambetov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi o'rinbosari,
g.f.d. (DSc), professor

[Signature]
B.A. Meliyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, g.f.f.d., dotsent

[Signature]
M.R. Usmanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, g.f.d., dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon amaliyotida rekreatsiya va turizmni birgalikda rivojlantirishda tabiat yodgorliklari, alohida muhofaza etiladigan hududlar, ekotizimlarni muhofaza qilish, aholi va inson salomatligini tiklashda tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga alohida ahamiyat berilmoqda. Butunjahon turistik tashkiloti (UNWTO) ning hisobotida turizmni barqaror rivojlantirishning 10 ta dasturi bayon etilgan bo'lib, unda «ekoturizmni rivojlantirish uchun iqlim o'zgarishi, chiqindilarni nazorat qilish, yerlardan barqaror foydalanish, bioxilma-xillikni va alohida muhofaza etiladigan hududlarni saqlash masalalariga alohida e'tibor berish»¹ni ta'kidlaydi. Bu holat ijtimoiy muammolarni hal qilishda muhim rol o'ynaydi va insonlarni hayot faoliyatini yaxshilashda rekreatsion ehtiyojlarni qondirish uchun qulay sharoit yaratadi. Aholini dam olish sharoitlarini ta'minlash bugungi kunning eng asosiy muammosi deb hisoblanadi hamda ushbu muammoni hal qilish strategiyalarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Jahonda rekreatsiya va turizmni jadal rivojlantirish va sohaning alohida hududlar, mintaqalar bo'ylab ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi o'rnini oshirish masalalarga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda. Shu jihatdan ushbu soha har doim uzluksiz rivojlanib kelmoqda. Aholining tabiiy muhitda dam olishi va rekreatsion faoliyat bilan shug'ullanishi bugungi kunda inson salomatligini tiklash, ruhiy-emotsional holatini me'yorlashtirish hamda mehnat unumdorligini oshirishning eng muhim omillaridan biri sifatida qaralmoqda. Rekreatsiya jarayonlari shaxsning fiziologik imkoniyatlarini tiklash, ish qobiliyatini qayta tiklash hamda uning ijtimoiy faolligini ta'minlashda alohida ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda turizm va rekreatsiya sohasini rivojlantirishga ustuvor e'tibor qaratib kelinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son farmoniga muvofiq "O'zbekiston - 2030" strategiyasi tasdiqlandi. Ushbu strategiyada O'zbekistonda tashqi va ichki turizmni rivojlantirish uchun keng sharoitlar yaratish orqali sayyohlar sonini oshirish bo'yicha ham muhim ustuvor yo'nalishlar belgilab berildi². Respublikamizda turizm sohasini jadal rivojlantirish, uning xalqaro turistik imidjini yuksaltirish, mintaqalarning turistik salohiyatini kuchaytirish turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish, yangi turizm yo'nalishlari va majmualarini yaratish bo'yicha muhim islohotlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5611-sonli Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-apreldagi "Zomin" turistik-rekreatsion zonasi faoliyatini hamda xalqaro umummavsumiy tog'-chang'i kurortini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6201-son Farmoniga muvofiq ishlab chiqilgan "Zomin" turistik-rekreatsion

¹<https://www.e-unwto.org>. UNWTO Annual report. 2017.

²O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida Farmoni

zonasini rivojlantirish konsepsiyasi, 2016-yil 2-dekabrda O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4861-sonli Farmoni, 2018-yil 7-fevraldagi "Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3514-sonli Qarori, shuningdek 2025-2026-yillarda sayyohlar oqimini keskin ko'paytirish va turistik xizmatlar ko'lamini jadal kengaytirish orqali turizmning iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida 2025 yil 15-maydagi PF-87-sonli Farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VIII. "Yer haqidagi fanlar" va V."Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi"ning ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Rekreatsiya va turizm sohalarining nazariy hamda uslubiy masalalari, uning barqaror rivojlanishi samaradorligini oshirish jihatlari bo'yicha ko'pgina geograf va iqtisodchi olimlar shug'ullanishgan. Jumladan, MDH va xorijiy davlatlarda N.F.Reymers, E.A.Csirmaz, K.Pete, T.A.Burmenko, A.M.Panasuik, V.A.Kvartalnov, A.M.Vetitnev, L.B.Juravleva, S.R.Yerdavletov, S.A.Shabelnikova, K.N.Musin, J.Aliyeva, A.G.Nizamiyev, V.S.Preobrajenskiy, I.P.Gerasimov, A.A.Mins, Y.M.Sharunenkov, M.P.Radjoneri, M.Valletta, F.Muane, S.A.Luchenok, A.N.Degtyarev, G.S.Gujin, M.Y.Belikov, E.V.Klimenko, M.Shnayder, P.N.Zachinyayev, N.S.Falkovich, A.N.Bulgakova va boshqalar tadqiqot ishlarini olib borgan.

O'zbekistonda esa ushbu soha bilan A.Z.Zokirov, A.Nig'matov, M.R.Usmanov, A.X.Yusupov, R.Usmonova, N.T.Shamuratova, Z.T.Abdulxakimov, Sh.A.Xolmurodov, O'.B.Badalov, M.R.Usmonov va boshqa tadqiqotchi olimlar shug'ullangan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining "Janubi-G'arbiy O'zbekistonning geotizimlarini tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy baholash, ularning geoekologik muommolarini o'rganish va kartalashtirish" mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqodning maqsadi Molguzar tog'ining rekreatsiya resurslari hamda rekratsion salohiyatini baholash, kartalashtirish va istiqbolda samarali foydalanish bo'yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqodning vazifalari:

Molguzar tog'i rekreatsiya resurslari tasniflash va ularning hududda rekreatsiyaning rivojlanishidagi ahamiyatini o'rganish;

Molguzar tog'ining tabiiy-iqlimiy, tarixiy-madaniy turistik-rekreatsiya resurslaridan oqilona foydalangan holda yangi rekreatsion-turistik marshrutlar ishlab chiqish;

Molguzar tog'ining landshaftlar xaritasi, Molguzar tog'i landshaftlarini rekreatsiya maqsadida manzilli baholash, rekreatsion rayonlashtirish hamda Molguzar tog'i rekreatsion marshrut xaritalarini ishlab chiqish;

Molguzar tog'i hududida rekreatsiyani oqilona hududiy tashkil etish va yanada rivojlantirish bo'yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqodning obyekti sifatida Molguzar tog'i va uning landshaftlari olingan.

Tadqiqodning predmeti Molguzar tog'i rekreatsiya resurslari va landshaftlarning rekreatsion xususiyatlari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya tadqiqotida hududiy tahlil, geografik taqqoslash, statistik, kuzatuv, geografik baholash, rayonlashtirish, kartografik, GAT texnologiyalari, dala tadqiqotlari, ma'lumotlarni tahlil qilish, adabiyotlar bilan ishlash va boshqa usullardan foydalanilgan.

Tadqiqodning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Molguzar tog'i rekreatsiya resurslari tasniflangan va ularning hududda rekreatsiyaning rivojlanishidagi ahamiyati aniqlangan;

Molguzar tog' landshaftlari rekreatsiya maqsadida baholangan va kelajakda rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

QGIS dasturida 1:350000 masshtabdagi Molguzar tog'i landshaftlari hamda manzilli baholash, Molguzar tog'i landshaftlarining rekreatsion rayonlashtirish, Molguzar tog'i rekreatsion marshrutlari xaritalari yaratilgan;

hududning tabiiy-iqlimiy, tarixiy-madaniy va turistik-rekreatsiya resurslaridan oqilona foydalangan holda yangi rekreatsiya marshrutlari va ularning namunaviy pasportlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Molguzar tog'i rekreatsiya resurslarining foydalanish darajasi bo'yicha tasnifiy mezonlar ishlab chiqilgan;

hududning iqlimiy va tarixiy-madaniy xususiyatlarini hisobga olgan holda tabiiy-iqlimiy, tarixiy-madaniy va turistik-rekreatsiya resurslaridan oqilona foydalanish maqsadida yangi turistik-rekreatsion marshrutlar ishlab chiqilgan;

Molguzar tog'i landshaftlaridan rekreatsiya maqsadida foydalanishda amaliy ahamiyatga ega bo'lgan manzilli xaritalari asosida rekreatsiya resurslaridan yanada samarali foydalanish yo'l-yo'riqlari ishlab chiqilgan;

Molguzar tog' landshaftlarida rekreatsiyani rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya tadqiqoti natijalari ishonchliligi O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi huzuridagi Hidrometeorologiya xizmati agentligi, Jizzax viloyati statistika boshqarmasi, Jizzax viloyati turizm boshqarmasi ma'lumotlari, Molguzar tog'i hududida olib borilgan dala-kuzatuv ishlari asosida bajarilganligi, dala tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan mavzuli kartalar, xulosa, taklif va tavsiyalar amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, avvalo hududning rekreatsion resurslar salohiyatini aniqlash,

kompleks baholash, kartalashtirish hamda infratuzilmani yaxshilash bo'yicha metodik yondashuvlarni yanada takomillashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Molguzar tog' hududi rekreatsion resurslar salohiyatini aniqlash, ularni kompleks baholash, turizm-rekreatsion infratuzilmasini takomillashtirish, yangi marshrutlarni ishlab chiqish hamda rekreatsiyani yanada rivojlantirishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Molguzar tog'i rekreatsiya resurslarini baholash bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy xulosa va takliflar asosida:

Molguzar tog'i rekreatsiya resurslari tasnifi va ularning hududda rekreatsiyaning rivojlanishidagi aniqlangan jihatlaridan O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi amaliyotida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasining 2025 yil 24 dekabrda 03-17/762 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, tasnif etilgan rekreatsiya resurslari doirasida ilmiy ishni kengroq tahlil qilish imkonini bergan;

hududning tabiiy-iqlimiy, tarixiy-madaniy va turistik-rekreatsiya resurslaridan oqilona foydalangan holda yangi turistik-rekreatsion marshrutlardan O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi amaliyotida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasining 2025 yil 24 dekabrda 03-17/762 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, hudud tabiiy va madaniy-tarixiy resurslariga ajratilib tahlil qilish imkoniyatini bergan;

QGIS dasturida 1:350000 masshtabdagi Molguzar tog'i landshaftlarining rekreatsiya rayonlashtirish, Molguzar tog'i rekreatsion marshrutlari, Molguzar tog'i landshaftlari hamda manzilli baholash xaritalaridan O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi amaliyotida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasining 2025 yil 24 dekabrda 03-17/762 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, rekreatsiya resurslaridan yanada samarali foydalanish imkoni bergan;

Molguzar tog' landshaftlari rekreatsiya maqsadida baholangan va kelajakda rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi amaliyotida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasining 2025 yil 24 dekabrda 03-17/762 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, hududda rekreatsiyani yanada rivojlantirish ishlarini amalga oshirish bo'yicha yangicha ilmiy yondashish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 8 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 2 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 116 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Dissertatsiyaning **“Rekreatsiya resurslaridan foydalanishning nazariy masalalari”** deb nomlangan birinchi bobida Rekreatsiya tushunchasining mazmun va mohiyatining nazariy jihatlari, Rekreatsiya resurslarini tadqiq etishning metodologik asoslari, rekreatsion faoliyatda ekologik barqarorlik va rekreatsion infratuzilma omillari yoritilgan. Jumladan, MDH va xorijiy davlatlarda N.F.Reymers, E.A.Csirmaz, K.Pete, T.A.Burmenko, A.M.Panasuik, V.A.Kvartalnov, A.M.Vetitnev, L.B.Juravleva, S.R.Yerdavletov, S.A.Shabelnikova, K.N.Musin, J.Aliyeva, A.G.Nizamiyev, V.S. Preobrajenskiy, I.P.Gerasimov, A.A.Mins, Y.M.Sharunenko, M.P.Radjoneri, M.Valletta, F.Muane, S.A.Luchenok, A.N.Degtyarev, G.S.Gujin, M.Y.Belikov, E.V.Klimenko, M.Shnayder, P.N.Zachinyayev, N.S.Falkovich, A.N.Bulgakova va boshqalar tadqiqot ishlarini olib borgan.

O'zbekistonda esa ushbu soha bilan A.Z.Zokirov, A.Nig'matov, M.R.Usmanov, A.X.Yusupov, R.Usmonova, N.T.Shamuratova, Z.T.Abdulxakimov, Sh.A.Xolmurodov, O'.B.Badalov, M.R.Usmonov va boshqa tadqiqotchi olimlar shug'ullangan. Rekreatsiyaning chegarasi ancha keng sanaladi. Har bir hudud o'ziga xos rekreatsiya resurslari tizimiga ega. Inson bo'sh vaqtlarida rekreatsiya resurslaridan foydalanib sog'lig'ini tiklaydi va o'z navbatida rekreatsiya sohasining rivojlanishiga hissa qo'shadi. Binobarin, uzoq muddatga mo'ljallangan rekreatsion faoliyat turizmga mos keladi va shu nuqtai nazardan ham turizm an'anaviy rekreatsiya bilan uyg'unlik kasb etadi.

N.F.Reymers esa “rekreatsiya - aholi o'z salomatligi va ish qobiliyatini tiklash maqsadida tabiiy hududlarda dam olishi yoki milliy bog', arxitektura yodgorliklari va boshqa ko'ngilochar maskanlarga sayohatlarga chiqishi” deb ta'kidlaydi.

Dissertatsiyaning **“Molguzar tog'i landshaftlaridan rekreatsiya maqsadida foydalanish masalalari”** deb nomlangan ikkinchi bobida Molguzar tog'ining tabiiy geografik tavsifi va uning rekreatsiya resurslari, Molguzar tog'ining rekreatsiya faoliyat turlari va imkoniyatlari, Molguzar tog'i landshaftlarini rekreatsiya maqsadlarda tadqiq etish va tasniflash muammolari o'rganib chiqildi. Molguzar tog'i o'zining tabiiy, madaniy-tarixiy majmualarning turli-tumanligi bilan dam oluvchilarni doimo o'ziga jalb etadi va ular uchun ko'rsatilayotgan servis xizmatni takomillashtirishga juda katta ehtiyoj sezadi. Ekskursiyalar, dorivor o't-o'simliklar yig'ish, tog' sport o'yinlari o'ynash, cho'milish mashg'ulotlari, iqlimiy, balchiq yordamida davolash, tabiat qo'ynida sayr qilish kabi omillar organizmning faoliyatini qayta tiklashga ko'mak beradi. Rekreatsiya maqsadlari uchun ayniqsa, Molguzarning sharqiy hamda shimoliy-g'arbiy hududlarida dam olishni samarali tashkil etishda foydalaniladigan hududlarni kartalashtirib, tabiatni muhofaza

qilishning asosiy yo‘llarini belgilab olib, rekreatsiya resurslaridan foydalanish usullarini ko‘rsatib berish muhimdir. Molguzar tog‘i hududida sayyohlik, sog‘lomlashtirish, dam olish maskanlarini tashkil etish va uni rivojlantirish uchun mavjud resurslar imkoniyatlarini tahlil qilish, rekreatsiya-turistik jihatdan rayonlashtirish va rekreatsiya-turistik marshrutlarni aniqlash, ilmiy asosda ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarni belgilash, sayyohlik-rekreatsioon karta hamda marshrutlar yo‘nalishlarini ishlab chiqish kerak.

M.B.Birjakovning fikricha – rekreatsioon-turistik marshrut bu geografik obyektlarga turli maqsadlarda, yo‘nalishlarda harakatlanadigan sayohatdir. Bu fikr ko‘proq turistik marshrutlar oldindan rejalashtirish, yo‘l, trassa bo‘yicha turistlarning ma‘lum vaqt davomidagi harakat davomiyligi hisoblanib, tuzilgan marshrut dasturi bo‘yicha harakatlanishi nazarda tutilgan va ekskursion tomonidan amalga oshiriladi.

Sog‘lomlashtirish muassasalari, rekreatsiya resurslarini aholi Molguzar tog‘i landshaftiga ilmiy asosda munosabatda bo‘lish, ya‘ni tabiiy landshaft yoki tabiat yodgorliklari; jumladan, tabiatning nodir joylari va o‘rmonlari, Yettikechuv havzasi hamda Uob qishlog‘i atrofidagi kichik-kichik va minerallashtirilgan buloq suvlari o‘z holicha saqlanishi kerak. Bu o‘rinda hududda ma‘lum darajada ijobiy ishlar qilinmoqda. Chunonchi, “Sh.Rashidov”, “Yulduzcha”, “Energy” kabi yozgi dam olish oromgohlari asosan viloyat aholisi va bolalar uchun xizmat qilib kelmoqda. Bundan tashqari, hududdan qo‘shni viloyatlarni bog‘lab turuvchi avtomagistral yo‘l o‘tganligi, bu joylarda mavsumiy Uobsoy, Yettikechuv, Zominsuv soylari tabiati qo‘ynida, mineral va buloq suvlaridan sog‘liqni mustahkamlash maqsadida foydalanish imkoniyatlari ko‘p.

Biz so‘nggi kuzatuvlar asosida Molguzar tog‘idagi tog‘ va tog‘oldi tekislik landshaftlarini barcha tabiat komponentlarini e‘tiborga olgan holda ajratishni lozim topdik. Bunda asosiy omillardan biri hududning yer resurslari, tuproq va ulardan foydalanish darajasi hisoblanadi. Hudud landshafti tekislikdan tog‘ga qarab quyidagicha almashinadi (1-rasm):


1) Qiyaroq, kamroq parchalangan tog‘ oldi tekisliklari hamda konus yoyilmalarining bo‘z-qo‘ng‘ir tuproqlari va toshloq quriq o‘zanlaridagi efemer, efemer-shuvoq, sho‘ra-shuvoq formatsiyali landshaft tipi.

2) Kuchli va kam parchalangan yonbag‘irlarning tipik bo‘z tuproqlaridagi, ayrim joylarda toshloq tuproqli adirlardagi sho‘rali shuvoqzorlar, ba‘zan efemer o‘tlar va bodomzorlar bilan qoplangan landshaft tipi.

3) Kam parchalangan o‘rtacha balandlikdagi tog‘larning to‘q bo‘z tuproqlaridagi efemeroid-butali, rang-qo‘ng‘irbosh, bir yillik sho‘ralar bilan o‘zaro almashinib keladigan efemerlardan iborat landshaft tipi.

4) O‘rtacha qiyaliklardagi turli darajada parchalangan yonbag‘irlardagi toshloq tuproqlardagi daraxt va butazorlar, turli o‘tlar, bug‘doyiq va shuvoq-efemer-bug‘doyikli, betaga-shuvoqli, yovvoyi bodomzorlardan iborat landshaft tipi.

5) O‘rtacha qiyalikka ega yonbag‘irlardagi boshqoqli-turli o‘tli dashtlar, baland bo‘yli o‘tloqlar bilan siyrak o‘rmonlardan iborat landshaft tipi




1-rasm. Molguzar tog'i landshaftlari xaritasi

Molguzar tog'i relyefi rekreatsiya turlarini amalga oshirishdagi ahamiyati katta. Bahor faslida 800-1200 mgacha adirlar va past tog'larga lolazor sayliga chiqishlari hamda umumiy hordiq chiqarishlari mumkin. Dam oluvchilar va sayohatchilarning bemalol dam olishlari uchun turli xil qulayliklarga ega bo'lgan ko'chma palatkalar, chodirlarni tashkil qilishlari mumkin. Xuddi mana shunday chodirlarni Yettikechuv, Zominsuv, Ravotsoy, Uobsoy daryosi sohillariga va boshqa tabiati go'zal maskanlariga bahor oylari joylashtirish maqsadga muvofiqdir. Tog'ning 700-1400 metrgacha bo'lgan joylarida sharoit yaxshi, bu yerlardagi tog'larda ovchilik sayohati bizda yuqori darajada rivojlanmagan. Buning asosiy sababi tog'lardagi hayvonot olami kundan-kunga soni, turi kamayib borayotganligi bilan ifodalanadi.


Molguzarda otda sayohat qilish esa o'rtacha balandlikdagi va baland tog'larda qulay. Bu past tog' va tog'oldilarda 1000-1200 m dan 1800 m gacha balandlikdagi tog'larda tashkil etish mumkin bo'ladi. Yoz faslida esa tog'larda qisqa muddatli bo'ladi. Yoz faslida dam olish sayyohlar uchun qulay. Sentabrdan oktabr oylariga qadar esa qisqa muddatli sayohat past tog'lar va tog' vodiylar 500-800 m dan to 1500 m gacha bo'lgan joylarda dam olish kunlari dam olish imkoniyatlari bor. Qish oylarida esa chanada uchish, tog'larning 600-1400 m gacha bo'lgan joylarida amalga oshirish mumkin.

Dissertatsiyaning “**Molguzar tog‘i landshaftlarini rekreatsiya maqsadida baholash va rayonlashtirish**” deb nomlangan uchinchi bobida Molguzar tog‘ini rekreatsiya maqsadida baholash masalalari, Molguzar tog‘i landshaftlarini rekreatsiya maqsadida rayonlashtirish masalalari hamda antropogen-tabiiy rekreatsion obyektlar tavsifi, Molguzar tog‘i hududida rekreatsion-turistik marshrut yo‘nalishlarini ishlab chiqish, ularning tavsifi va rekreatsiya resurslaridan samarali foydalanish istiqbollari masalalari batafsil o‘rganildi.

Molguzar tizmasi rekreatsiya resurslariga boy hudud hisoblanadi. Mazkur hudud tog‘ yonbag‘irlari tabiatining o‘ziga xosligi, sokinligi havosining tozaligi, xushmanzara archazorlari, tog‘ yonbag‘irlardagi go‘zal bog‘lari, biologik va mineral resurslari, tarixiy hamda arxeologik yodgorliklari, chashmalari, qadimiy g‘orlari, dam olish maskanlari bilan alohida ajralib turadi. Biz ham yuqoridagi manbalardan foydalangan holda Molguzar hududi rekreatsion resurslarini quyida guruhlarga ajratdik: tabiiy (2-rasmga qarang) va madaniy-tarixiy (3-rasmga qarang).



2-rasm. Tabiiy rekreatsion resurslar



3-rasm. Madaniy-tarixiy rekreatsion resurslar

Rekreatsion rayonlarga ajratishimizda mazmuniga asoslanib xususiy rayonlashtirishga amal qilindi ya’ni rekreatsion hududlarda joylashgan ma’lum bir komponent chuqur o‘rganilib, analiz qilinadi, shu asosda xaritasi tuziladi va tabiiy-geografik birliklarga ajratiladi. Rekreatsion rayonlarni shakllantiruvchi omillar sifatida tabiiy landshaftlar, tarixiy-madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy obyektlar va infratuzilma xizmat qiladi. Biz ham ushbu rekreatsion rayonlashtirishimizda tabiiy omillardan daryo va soylar, tog‘, sharshara, buloq, g‘orlar, biologik, tarixiy va

arxeologik yodgorliklar, paleontologik yodgorliklarni asos qilib oldik. Shuningdek, rayonlashtirish tamoyillarga ham tayangan rekreatsion rayonlashtirishda hududiy bir butunlik, majmualilik tamoyillar asosida quyidagi rekreatsion rayonlarga ajratildi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Molguzar tog‘i rekreatsiya rayonlari

O‘lka	Provinsiya	Oblast	Rayon	Kichik rayon
O‘rta Osiyo	Tyanshan-Pomir	Turkiston	Zomin	Zomin
				Ravot-Peshag‘or
			Baxmal	Sangzor
				Molguzar


Zomin hamda Sangzor rekreatsion kichik rayonlari daryo va soylarga boy bo‘lib, ushbu hududlarda suv, o‘simlik dunyosi asosiy rekreatsion resurs manbai hisoblanadi. Ravot-Peshag‘or rekreatsiya rayoni o‘zining salqinligi bilan ajralib Uob qishlog‘i bolalar sog‘lomashtirish oromgohlari bilan mashhur hisoblanadi.

I. Zomin rekreatsion rayoni hamda Zomin, Ravot-Peshag‘or kichik rekreatsiya rayoni (4-rasm): Ushbu rekreatsiya rayoniga Yettikechuv havzasi, Tangi darasi, Chortangi darasi, Esmeralda sharsharasi, Miq qal‘asi, 300 yoshli shumtol, buloq va g‘orlar, Uchqiz madaniy yodgorligi, Peshag‘orsoy, Peshag‘or g‘ori, Oltihovuz ekologik qishlog‘i, Ko‘rpaoydagi 800 yoshli yong‘oq, Xo‘jai Serob ota ziyoratgohi, Sh.Rashidov, Bo‘ston, Energy sog‘lomashtirish bolalar oromgohlari kiritiladi. Ushbu rekreatsion rayonda rekreatsion resurslardan daryo va soylar, tog‘, sharshara, arxeologik yodgorlik, biologik yodgorlik, buloq va g‘orlar, Azim Zomin shifo va Yulduzcha sog‘lomashtirish oromgohlari muhim omillardan biri hisoblanadi. Ushbu rekreatsion rayonimizda hududiy bir butunlik tamoyiliga asoslanadigan bo‘lsak bu yerdagi arxeologik yodgorlik Miq qal‘asi, biologik yodgorlik 300 yoshli shumtol daraxti, yoki Chontangi darasi, Esmeralda kichik sharsharalar guruhi, paleontologik yodgorlik Uchqiz toshlari, Oltihovuz ekoqishlog‘i, geologik yodgorlik (Peshag‘or g‘ori) boshqa rekreatsion rayonda uchramasligi bilan farqlanadi. Aksincha, majmualilik tamoyilga muvofiq esa ushbu rekreatsion rayonda uchraydigan tabiiy geografik birliklar jumladan buloqlar, g‘orlar, oromgohlar, biologik yodgorliklar boshqa rekreatsion rayonlarda ham uchraydi.

II. Baxmal rayoni hamda Sangzor, Molguzar kichik rekreatsiya rayoni: Ushbu hududga Sangzor havzasi soylari va uni atrofida joylashgan dam olish uylari, kempinglar, kichik hosteller Sayxonsoy tekislik va adirliklari, Temur darvoza yodgorligi, Sa‘d Ibn Abu Vaqqos ota ziyoratgohi joylashgan.

Ushbu rekreatsion rayonda rekreatsion resurslardan daryo va soylar, tog‘, buloq va g‘orlar, madaniy yodgorlik, muhim omillardan biri hisoblanadi. Ushbu rekreatsion rayonimizda asosan majmualilik tamoyilga amal qilinadi, rekreatsion

rayonda uchraydigan tabiiy geografik birliklar jumladan buloqlar, g'orlar, madaniy yodgorlik boshqa rekreatsion rayonlarda ham uchraydi.



4-rasm. Molguzar tog'ining rekreatsiya maqsadida rayonlashtirish xaritasi

Molguzar tog'ining rekreatsion resurslar ko'rsatgichlarini tahlil qilishda, kompleks baholash metodikasi tabiiy iqlimiy, tarixiy-madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy resurslarga ega bo'lgan hududlarni, shuningdek, hududlarning turistik-rekreatsion resurslar salohiyati bo'yicha umumiy reytingini aniqlash imkonini beradi.

Molguzar tog' landshaftlarni rekreatsiya maqsadida baholashda quyidagi landshaftlarning balandlik darajalariga ko'ra yoki tekislikdan toqqa qarab almashinish darajasiga qarab (shuningdek rekreatsion maqsadlarda foydalanishda relyef, iqlim resurslari, suv resurslari, tarixiy va madaniy resurslarning joylashish o'rni, sog'lomlashtirish maskanlarining geografik o'rni muhim rol o'ynaydi): **qisman qulay, kamroq qulay, o'rtacha qulay, qulay, juda qulay** kabi beshta qulaylik darajalaridan foydalanishni maqsadga muvofiq deb topdik (5-rasm). Ushbu darajalarga ajratishda *sifat darajasi bo'yicha* baholandi. Sifat jihatdan asosan hududning *qulaylik, go'zalligi, estetik va ekologik holatini* baholanadi. Molguzar hududi landshaftlarini rekreatsion baholashda manzara go'zalligi, tabiiylik darajasi, yo'llarning holati, xavfsizlik nuqtai nazaridan sel, ko'chkilarning, yong'in xavfining darajasi, havoning tozaligi, sokinlik darajasi hisobga olindi:

- 1) Kam parchalangan o'rtacha balandlikdagi tog'larning to'q bo'z

tuproqlaridagi efemeroid-butali, rang-qo'ng'irbosh, bir yillik sho'ralar bilan o'zaro almashinib keladigan efemerlardan iborat landshaft tipi. Landshaft dengiz sathidan balandligi 2000-2600 metrni tashkil etadi. Ladshaftlardan asosan yaylov chorvachiligi maqsadlarida foydalaniladi. Tog' mintaqasi o'simliklari asosan tog' dashtlari, tog' kengbargli o'rmonlari, tog' ignabargli o'simliklari tiplariga bo'linadi. Bargli o'rmonlarda yong'oqzorlar keng tarqalgan. Ignabrglilardan keng tarqalgani archa hisoblanadi. Baland hamda tik tog' cho'qqilari egallagan landshaft turida yuqoriga ko'tarilgan sayin havo harorati pasayib boradi. Ushbu hudud rekreatsiya maqsadida baholashda **qisman qulay** xarakteriga ega hisoblanadi va bu hududga asosan Molguzarning markaziy qismlari kiritiladi. Bu yerda rekreatsion resurslardan iqlim, o'simlik muhim rol o'ynaydi deyarli rekreatsion obyektlar joylashmagan hisoblanadi. Bu hududda kelajakda alpinizmni rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

2) O'rtacha qiyalikka ega yonbag'irlardagi boshoqli-turli o'tli dashtlar, baland bo'yli o'tloqlar bilan siyrak o'rmonlardan iborat landshaft tipi. Ushbu landshaft tipi Molguzarning janubiy va g'arbiy qismlarini o'z ichiga oladi. Ushbu hududda rekreatsiya resurslaridan daryo va soy suvlari, madaniy resurslardan shuningdek ushbu hududda kelajakda gastronomik turizmni ham rivojlantirish mumkin bo'ladi. Ladshaftlardan asosan lalmikor dehqonchilik va yaylov chorvachiligi maqsadlarida foydalaniladi. Mintaqada yog'in miqdori o'zgaruvchan bo'lib 400-480 mm ni tashkil etadi. Asosiy o'simliklarini tog' yalpizi, chuchmoma, shirach, sariq andiz kabilar uchrasa, soylar, sersuv toshloq yerlarda do'lana, bodom, pista kabilar o'sadi. Asosan siyrak archazorlar tik, ba'zan qoyali tog'larda boshoqli va efemeroid o'simliklardan iborat formatsiyali landshaftlar. Relyefi asosan tog'oldi tekisliklari, o'rtacha balandlikdagi tog'lardan iborat. Ushbu hududda rekreatsion resurslardan o'simlik, daryo va soyliklar kiritiladi. Ushbu rekreatsion rayon baholanishga ko'ra **kamroq qulay** darajasida baholandi.

3) Kuchli va kam parchalangan yonbag'irlarning tipik bo'z tuproqlaridagi, ayrim joylarda toshloq tuproqli adirlardagi sho'rali shuvoqzorlar, ba'zan efemer o'tlar va bodomzorlar bilan qoplangan landshaft tipi. Ushbu landshaft tipi Molguzarning markazdan shimoldagi hududlarni o'z ichiga oladi. Ushbu hududga Oltihovuz ekoqishloq hududlari, Sayxonsoy tekisligi va adirlari, Ko'rpasoy va uning buloqlari kiritiladi. Oltihovuz qishlog'i o'zining toza va serjilo tabiati bilan ajralib turadi. Yuqorida sanab o'tilgan rekreatsion hududlardan asosan rekreatsion sog'liklarini tiklash maqsadida, buloq suvlarida davolanish, mevali daraxtzorlar va toza havodan nafas yo'llarida kasalligi bo'lgan dam oluvchilar borib dam olishadi. Sayxonsoy tekislik va adir atroflarida rekreatsiya infratuzilmasi yaxshi rivojlangan hisoblanadi. Bu yerda turli xil kafe va restoran, motel va hostellarni, tekis va qulay bo'lgan avtomobil yo'llarini uchratishimiz mumkin bo'ladi. Ushbu rekreatsion rayon baholanishga ko'ra **o'rtacha qulay** darajasida baholandi.


4) Qiyaroq, kamroq parchalangan tog' oldi tekisliklari hamda konus yoyilmalarining bo'z-qo'ng'ir tuproqlari va toshloq quriq o'zanlaridagi efemer, efemer-shuvoq, sho'ra-shuvoq formatsiyali landshaft tipi. Ushbu landshaft tipi Molguzarning to'liq shimoliy, qisman shimoliy-sharqiy hududlarini o'z ichiga oladi.

Ushbu hudud landshaftlarida “Energy”, “Sh.Rashidov”, “Bobur” bolalar sog‘lomlashirish oromgohlari, Uob, bir necha dam olish uylari, Peshag‘or g‘ori, Xo‘jai Serob ota ziyoratgohi, Beshbuloq ota ziyoratgohi kabi rekreatsion hududlar joylashgan. Keltirilgan rekreatsion obyektlarda bolalar yozgi sog‘lomashtirish oromgohi, Uob qishlog‘i atrofida dam olish uylariga tashrif buyurishlari, dam olishlari shuningdek ziyoratgohga tashrif buyurib diniy turizmni ham rivojlanishiga hissa qo‘shadilar. Peshag‘or g‘origa asosan sayohatchi sifatida tashrif buyurishlari mumkin bo‘ladi. Ushbu hudud rekreatsion baholanish darajasiga ko‘ra **qulay** hisoblanadi

5) O‘rtacha qiyaliklardagi turli darajada parchalangan yonbag‘irlardagi toshloq tuproqlardagi daraxt va butazorlar, turli o‘tlar, bug‘doyiq va shuvoq-efemerbug‘doyiqli, betaga - shuvoqli, yovvoyi bodomzorlardan iborat landshaft tipi. Ushbu landshaft tipi Molguzarning to‘liq sharqiy, janubiy va qisman markaziy hududlarini o‘z ichiga oladi. Ushbu landshaft tipida joylashgan rekreatsion hududlar joylashuvida va rekreatsiyani rivojlantirishda bir-biridan farq qiladi. Bu hududda rekreatsiyasi nisbatan kamroq rivojlangan markaziy tog‘liklarni yoki Baxmalning qir adirlarida joylashgan mehmon uylarini, kempinglarni ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Shuningdek go‘zal manzarayu, toza havosi, zilol suvlari bilan ajralib turadigan Zominsuv kichik rekreatsion rayoni ham aynan ushbu landshaft tipida joylashgan. Bu yer o‘zining sharqiy yo‘nalishdagi rekreatsion marshruti bilan mashhur hisoblanib, bu yerda Miq qal‘asi, kichik sharsharalar guruhi, Chortangi darasi, bir nech kichik g‘orlar, toza va shifobaxsh buloqlar, Yettikechuv kichik daryo bo‘ylaridagi dam olish uylari joylashgan. Ushbu hududda rekreatsion resurslaridan o‘simlik, madaniy yodgorliklar, daryo va soylar, biologik yodgorliklar, ziyoratgohlar muhim o‘rin egallaydi. Ushbu hudud rekreatsion baholanish darajasiga ko‘ra **juda qulay** hisoblanadi

Molguzar tog‘i hududining Yettikechuv hamda janubiy yonbag‘irlarining katta qismi milliy bog‘ hududida joylashganligi hudud o‘rmonlaridan oqilona foydalanishga, o‘rmon meliorativ holatini tiklab turishga, turli xil mevali hamda shifobaxsh daraxt turlarini kesib, yoqib yubormaslik mas‘uliyatini oshiradi. Tog‘ bog‘dorchiligida yong‘oq, bodom, olma, nok, olcha, gilos, o‘rik, jiyda, qarag‘ay kabilarning ko‘p sonli navlaridan xo‘jalik sharoitlarida foydalaniladi.

Rekreatsiya mintaqalarida kishilarning atrof-muhitga doimiy ta‘sirini ko‘zda tutib, oqar suvlar, daraxtlar, hayvonot olamini muhofaza qilishga doir chora tadbirlar belgilanishi shart. Sayyohliklar o‘tkaziladigan hududlarda ular harakatlanadigan so‘qmoqlarning hududdagi mavjud tabiiy obyektlarga zarar yetkazmaydigan joylardan o‘tkazilishi maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz. Shuningdek, katta yo‘llar bo‘yidagi obyektlarga yo‘lovchilar tomonidan ta‘sir etilishini cheklovchi tartiblarni amalga oshirish zarur. Xususan, tog‘li hududlardan o‘tgan avtomobil yo‘llari bo‘yidagi qoya toshlarga turli yozuvlar yozish, toshlarning ko‘chirib ketilishi kabi holatlar shu paytgacha nazorat qilinmay kelingani achinarli holdir.



5-rasm. Molguzar tog‘i landshaftlarini rekreatsiya maqsadida baholash xaritasi

Molguzar tog‘ining noyob resurslaridan biri hisoblangan tabiiy yodgorliklarni, rekreatsion hududlarni muhofaza qilish va istiqbolda yanada rivojlantirish uchun quyidagi taklif va tavsiyalarni berib o‘tishni lozim topdik:

- Molguzar tog‘ida balandlik mintaqalari bo‘yicha rekreatsion obyekt, tabiiy-geografik yodgorliklarni ekoturizm, etnoturizm va boshqa dam olish sohasini rivojlantirish uchun ishlab chiqilgan nazariyalarni amaliyotga tadbiiq qilishda “O‘zbekturizm” bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;

- Yettikechuv havzasi bo‘ylab turizmning sxematik marshrut kartalari tayyorlash va unda harakatlanish bo‘yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish, havza atrofida ko‘plab mehmon uylari tashkil qilish va mehmonlar uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, dendropark (yunoncha “dendron”-daraxt, inglizcha “park”-atrofi o‘ralgan bog‘. Ya’ni turli daraxt va o‘simliklar kolleksiyasi ekilgan katta, xushmanzara bog‘) hududlarini yaratish va ularni kengaytirib borishni;

- hozirgi vaqtda internet tarmog‘ida Molguzar tog‘laridagi tabiiy, tarixiy, arxeologik, biologik yodgorliklar rekratsion resurs sifatida yoritib boruvchi birorta ham sayt yoki mobil ilovalar yaratilmagan. Hudud haqida yangi web sayt yaratib, aholisi, ularning an‘analarini sof holicha saqlab qolish, saytdagi ma’lumotlar o‘zbek, rus va ingliz tillarida berib borish orqali saytdan foydalanuvchilarni sonini bir necha barobarga oshirish imkoni beradi;

- xorijlik turistlarga xizmat qiladigan va bir qancha xorijiy tillarni mukammal biladigan gidlar faoliyatini yo‘lga qo‘yish;

- hududdagi ko‘plab g‘orlarga ham sayyohatlarni tashkil qilish rejalarini ishlab chiqish. G‘orlarga sayyohlar tashrif buyurgan vaqtida, g‘orning xususiyatlari bilan yaqindan tanishtirib boruvchi mutaxassislarini jalb qilish lozim;

- Yettikechuv va boshqa daryo-soylar havzalarida dam oluvchilarning bir necha kun “ekologik so‘qmoq” yo‘nalishlarida harakatlanishi va ushbu yo‘nalish vaqtida dam olishlari uchun “ko‘chma” uy-mehmonxonalar tashkil qilish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

- magistral yo‘llardan va sanoat korxonalaridan shamollardan gaz bilan ifloslanishini turli toifadagi gazga chidamli daraxtlarni ekish orqali kamaytirish kerak. Shovqin, chang va gazlardan himoya qilish uchun eng yaxshi daraxt turlari eman, tol, chinor, kumush terak, tut, yong‘oq, archa va chinor hisoblanadi. Ignalilar yoqimsiz hidlarni yo‘q qiladi. Xuddi shu daraxt turlari antibakterial xususiyatlarga ega va havoni boyitish qobiliyatiga ega.

- Molguzar tog‘larining qoyali hududlarida alpinizm, tog‘li va nisbatan qoyasiz hududlarida esa tog‘ chang‘i sport turlarini rivojlantirish maqsadga muvofiq bo‘lar edi;

- Molguzar tog‘i hududidagi Yettikechuv hududida ovchilik, qishloqlarida tuyada sayr va tuya sutidan davolash-sog‘lomlashtirishda, tibbiy-davolanishni rivojlantirish maqsadga muvofiq;

- qishloqda gastronomik turizmni rivojlantirishda alohida tayyorlash usuliga ega bo‘lgan Zomin qozon patirini (mahalliy qo‘y sutidan olingan qaymoq, bug‘doy uni, suv) misol tariqasida keltirish mumkin;

- Bosh Peshag‘or qishlog‘i Peshag‘or g‘origa yetmasdan nisbatan tekis manzarali hududlarda, Uob qishloq hududlariga har yili o‘rtacha 10-15 mingga yaqin xorijiy va mahalliy sayyohlar tashrif buyuradi. Qishloq xonadonlarida 15 dan ortiq mehmon uylar mavjud bo‘lib, o‘rinlari soni 150 ga yaqin. Sayyohlarga xizmat ko‘rsatuvchi mehmon uylar, ovqatlanish joylari yetishmaydi. Misol uchun qishloqda kelib ketuvchi sayyohlar bir kecha 2 kun qolishi uchun kamida 150-200 ta joy yetishmaydi. Buning uchun bu yerda yana kamida 15-20 ta mehmon uylarga talab seziladi. Turistlar oqimini ko‘paytirish va xizmat ko‘rsatishni yaxshilash uchun 20 ta oilaviy mehmon uylarini tashkil qilishni taqozo etadi. Shuningdek ushbu hududda havosi salqin bo‘lganligi uchun yashil daraxtlarni ekib, “dendro bog‘lar” tashkil etish lozim deb hisoblaymiz.

- Zomin tumani Qo‘riq massivida “Azim Zomin Shifo” davolash-sog‘lomlashtirish maskani, “Yulduzcha” bolalar oromgohi kabi sanatoriya va dam olish maskanlari alohida ahamiyatga ega. Bu yerda dam olish, cho‘milish, tibbiy-sog‘lomlashtirishni rivojlantirish istiqbolli hisoblanadi. Davolanuvchilar hamda dam oluvchilarga xizmat ko‘rsatishni yaxshilash maqsadida tadbirkorlar tomonidan mehmon uylar, kemping, o‘tovlar, dala hovlilar tashkil etish zarur, tashkil etish hisobidan ushbu sog‘lomlashtirish maskaniga ambulatorniy dam oluvchilarni sonini ham bir qanchaga oshirish mumkin bo‘ladi. “...oilaviy mehmon uylar yo‘nalishida

faoliyatini tashkil qilgan tadbirkorlik sub'ektlariga oilaviy mehmon uylar tashkil qilish xarajatlarining ma'lum qismigacha, subsidiyalar ajratish lozim deb o'ylaymiz.

Molguzar tog'lari yonbag'irlaridagi qishloqlar, daryo va soylar sohil bo'ylari, mavjud suv omborlari, qishloq xo'jalik ekin maydonlari atroflari, yo'l bo'ylarida manzarali va mevali bog'lar, daraxtzorlar, o'rmonzorlar yaratish, sayilgohlar, turli sport o'yingohlari, golf maydonlari yaratish, yaylovlarda fitomelioratsiya tadbirlarini keng ko'lamda tashkil etish nafaqat hududlar tabiatidan oqilona foydalanishni, balki mahalliy aholi, sayyohlar va rekreantlar uchun jozibadorlik hamda ularning dam olishlariga o'ta qulayliklar yaratilishiga, shuningdek geotizimlarning barqarorligini oshishiga xizmat qiladi.

XULOSA

Molguzar tog'i landshaftlarining hududiy rekreatsion xususiyatlarini aniqlash, ularni tasniflash, baholash, kartalashtirish va samarali foydalanish bo'yicha olib borilgan ishlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi.

1. Rekreatsiya resurslari va rekreatsiya geografiyasiga doir olib borilgan tadqiqot ishlarini tahlil qilish ishning dolzarbligi, ilmiy jihatlari, hududda rekreatsiyani rivojlantirishning amaliy ahamiyatini ochib berishga xizmat qildi.

2. Hududdagi geografik jihatdan turli tabiiy landshaftlar majmuasi tashkil topganligi, vertikal tabaqalanganligi Molguzar tog'i landshaftlarini turli balandlik mintaqalari va ular tarkibida turli landshaft tiplarini ajratish imkonini berdi.

3. Molguzar tog'i rekreatsiya resurslarining foydalanish rekreatsiya maqsadlarida foydalanish darajasiga ko'ra tasniflanishi rekreatsiya resurslarini ilmiy jihatdan kengroq tahlil qilish imkoniyati yaratildi.

4. Molguzar tog'ining tabiiy geografik xususiyatlarini va uning rekreatsion resurslarini tahlil qilish hududda rekreatsion faoliyat turlarini yuritish imkoniyatlari aniqlashga xizmat qildi.

5. Molguzar tog' tizmasining landshaftlarini tadqiq etish, rekreatsion resurslarni tahlil qilish, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish, landshaftlarni tasniflash va kompleks baholash Molguzar tog'ining 1:350000 mashtabdagi turkum xaritalarini yaratish imkonini berdi.

6. Hududning ishlab chiqilgan turli manzilli xaritalari, rekreatsion resurslarni tabiiy-iqlimiy, tarixiy-madaniy va turistik-rekreatsiya resurslariga ajratish turli turistik-rekreatsion marshrutlar ishlab chiqilishiga imkoniyat yaratdi.

7. Tog' landshaftlarining xilma-xilligi, mikroiklimiy va ekspozitsion farqlar, rekreatsiya resurslarini tasniflanishi hududni rekreatsiya maqsadlarida rayonlashtirish va rayonlar tarkibida kichik rayonlarni ajratish imkonini berdi.

8. Molguzar tog'i landshaftlaridan samarali foydalanish bo'yicha ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar kelajakda hududda rekreatsiyani yanada rivojlantirish ishlarini amalga oshirish bo'yicha yangicha ilmiy yondashish imkonini berdi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/2025.27.12.Gr.09.11 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ САМАРКАНДСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ
ШАРАФА РАШИДОВА**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ
ШАРОФА РАШИДОВА**

ЖАНИЗАКОВА ГУЛШОДА МУРОДОВНА

**РЕКРЕАЦИОННЫЕ РЕСУРСЫ МОЛГУЗАРСКИХ ГОР И
ПЕРСПЕКТИВЫ ИХ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ**

11.00.01 – Физическая география

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ГЕОГРАФИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Самарканд – 2026

Тема диссертационного исследования доктора философии (PhD) по географическим наукам зарегистрирована Высшей аттестационной Комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером № В2025.4.PhD/Gr421.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном университете имени Шарофа Рашидова

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-сайте Научного совета (www.samdu.uz) и Информационно образовательном портале "ZiyoNet" (www.ziynet.uz)

Научный руководитель: Аббасов Субхон Бурхонович
доктор географических наук, профессор

Официальные оппоненты: Боймирзаев Каримжон Мирзахмедович
доктор географических наук (DSc), доцент
Холмуродов Шакарбек Абдуганиевич
доктор философии по географическим наукам (PhD),
доцент

Ведущая организация: Каршинский государственный университет

Защита диссертации состоится 25 апреля 2026 года в 10⁰⁰ часов на собрании Научного Совета DSc.03/2025.27.12.Gr.09.11 по присуждению ученых степеней при Самаркандском государственном университете имени Шарофа Рашидова. (Адрес: 140104, г.Самарканд, улица Бустансарай, дом 93. Тел.: (+99899) 776-77-25, факс: (+99866) 239-11-40; e-mail: ik-geografiya2019@mail.ru)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова зарегистрирована за № 27. Адрес: 140104, Самарканд, Университетский бульвар, дом 15. Тел.: (+99866) 239-11-40.

Автореферат диссертации разослан 10 апреля 2026 года.
(реестр протокола рассылки №9 от 31 марта 2026 года.



И.Р. Турдиев
Заместитель председателя Научного совета по присуждению научных степеней, д.г.н., (DSc), профессор

Б.А. Мелиев
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, д.ф.г.н. (PhD), доцент

М.Р. Усманов
Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, д.г.н. (DSc), доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация к диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В мировой практике при совместном развитии рекреации и туризма особое внимание уделяется природным памятникам, особо охраняемым территориям, охране экосистем, а также рациональному использованию природных ресурсов в целях восстановления здоровья населения и человека. В отчёте Всемирной туристской организации (UNWTO) представлены 10 программ устойчивого развития туризма, в которых подчёркивается необходимость уделять особое внимание таким вопросам, как изменение климата, контроль за отходами, устойчивое землепользование, сохранение биоразнообразия и особо охраняемых природных территорий в целях развития экотуризма. Данное направление играет важную роль в решении социальных проблем и создаёт благоприятные условия для удовлетворения рекреационных потребностей населения, способствуя улучшению качества жизни людей. Обеспечение условий для отдыха населения считается одной из наиболее актуальных проблем современности и требует разработки соответствующих стратегий её решения.

Во всём мире уделяется особое внимание научным исследованиям, посвящённым ускоренному развитию рекреации и туризма, а также повышению роли данной отрасли в социально-экономическом развитии отдельных территорий и регионов. В этом контексте данная сфера характеризуется постоянным и непрерывным развитием. Отдых населения в природной среде и участие в рекреационной деятельности в настоящее время рассматриваются как один из важнейших факторов восстановления здоровья человека, нормализации его психоэмоционального состояния и повышения производительности труда. Рекреационные процессы имеют особое значение для восстановления физиологических возможностей личности, возобновления её трудоспособности и обеспечения социальной активности.

В нашей стране, развитию сектора туризма и отдыха, уделяется приоритетное. В частности, в соответствии с Указом Президента Республики Узбекистан УП №-158 от 11 сентября 2023 года, была утверждена стратегия «Узбекистан – 2030». Эта стратегия, также, определяет важные приоритетные направления, для увеличения численности туристов, путем создания благоприятных условий для развития внутреннего и внешнего туризма в Узбекистане. В нашей республике, проводятся важные реформы, направленные на стремительное развитие туристического сектора, улучшение его международного туристического имиджа, укрепление туристического потенциала регионов, диверсификацию туристических услуг, а также, создание новых туристических направлений и комплексов.

Данное диссертационное исследование в определённой мере, служит реализации задач и решений определённых в Указах Президента Республики Узбекистан УП №-5611 «О дополнительных мерах по ускоренному развитию

